

Issues of Moral Advice and Instruction in “Zarbulmasal”

Ibrohimova Mohlaroy Abdubannob qizi

A Student of Kokand State University

Annotation

This article examines the place and socio-political significance of the work Zarbulmasal in Uzbek literature. The skillful use of folk proverbs not only enriches the composition of the work but also complements the distinctive features of the plot and the speech characteristics of its characters. The fact that the work is built upon didactic fables, allegorical narratives, expressive and accessible language, and folkloric elements demonstrates the masterpiece status of Zarbulmasal. It would not be entirely correct to interpret the development of events in Zarbulmasal solely as being based on social issues. Through the depiction of animals and birds, the allegorical work reflects the views of Gulkhaniy, a prominent literary figure of the nineteenth century, as well as the lifestyle of different social groups and various human traits, often conveyed through sharp expressions and moral advice. Through satire, the author emphasizes moral values as the solid foundation of individuals, society, and even the state system as a whole.

Keywords

Didactics, didactic literary work, allegory, reality, society, proverb, narrative, element, character, problem.

Kirish

"Zarbulmasal" o'zaro mojarolar ortida siyosiy ko'rinishdagi tadqiqotlarga asoslanganligi uning ilmiy va atroflicha qabul qilishni o'rgatadi. Qahramonlararo qarama-qarshiliklar badiiy did, yestetik qarashlarning shakllanishida yaxlit butunlikni tashkil etadi. Gulxaniy masal janrida samarali ijod qilganligi, so'zga mohir bo'lganligi, pand-nasihat yo'nalishining har bir dialoglarga to'g'ri kelishi asarni yaxshiroq tushunish uchun xizmat qilgan. Hikoyatlarda ikki yoqlama ma'no: ommaga

va shaxsga tegishli ironiya oydinlashgan.¹ Mol-dunyo va axloq boylik ortidan quvgan insonlarning axloqiy qadriyatlardan uzoqlashishi asarda o'z aksini to'la topgan. Ularda o'zbek xalqining qator udumlari bayon etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

"Zarbulmasal"da insonga xos tomonlar qushlar munozarasi orqali berilgan. Podshohda odillikning tomir otmaganligi, xalqqa nisbatan befarqligi, aholining amaldorlardan noroziligi, o'z qobig'ini o'ylab, fuqarolarning istaklariga bolta urishi majoz usulida ko'rsatib berilgan. Bunga dalil qilib Boyqush, Ko'rqush, Yapaloqqush, Kulonkir sulton deb nomlanishi ramziy ekanligi, Boyqushning pana joylarda yashashi bilan kichik hududga egalik qilishini ko'rsatish mumkin va h. Ular o'rtasidagi konfliktlar voqealar jarayoniga satirik ruh olib kirgan.²

Asarda maqollar salmog'i jada katta. Maqollar xalq qadriyatlarini ifodalaydi. Asar tilida, ayniqsa majozlarning nutqiy jarayonida odatiy so'z gaplar o'rniga turg'un birikmalardan foydalanish nafaqat masal ko'lamining kengligiga, shuningdek, yanada "Zarbulmasal" sujetini yanada ta'sirchan chiqishiga olib kelgan. Asar davomida o'zbekona an'analarning tilga olinishi, ilmning rivojiga urg'u berish, Turumtoy xo'jayiniga aybini aytganligini odamiylik ko'rsatgichi bilan o'lchanishi, mansab-parastlikning tanqid qilinishi ko'rsatilib berilgan. Yozuvchining asosiy maqsadi davrdagi noo'rin urf-u odatlar ustidan ko'r-ko'rona kulish emas, majoz orqali kishilarni to'g'ri yo'lga boshlash, qusur va illatlarni bartaraf etish, xolos.

Tahlil va natija

"Zarbulmasal" yo'q yerdan paydo bo'lgan emas. Asarni yaratishda Gulxaniy jahon adabiyotining durdonalari bo'lgan "Panchatantra", "Silsilat ul-zahab", "Qutadg'u bilig", fors-tojik adabiyotidagi bir qator "Zarbulmasal"lardan xabardor bo'lgan. Bu xabardorlik asarning sujet qurilishi va unda o'zbek xalq maqollarini o'rinli ishlata olganligida ko'rinadi. Ma'lumki, maqol fikrni tushunarli, yesda qolarli ifodalashga yordam beradi.

Asardagi bir qator maqollarga e'tibor qarataylik. "Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga" maqoli negizida ³ "Boshga balo kelsa, tilim bosh unga, Tilimni til avval, tegma boshimga, Taning tilim bilmas, tiling tinmasa, Tilingni tiyib yur, tishing sinmasin" degan yusufona hikmatning isi kelib turadi. "It olg'on birla itorch bo'lmas" maqoli "Toshbaqa bilan CHayon" sujetiga muvofiq kelishini anglashimiz mumkin. "Yomon ish qilgan, yaxshi bo'lib qolmaydi. "Egasini siylagan itig'a so'ngak tashlar", "Anglamay so'zlagan og'rinmay o'lar, CHaynamay yeganlar kovshanmay ketarlar", "Sigir suv ichguncha, buzoq muz yalar", "Bel og'rimaganning non yeyishiga boq", "O'zingni er bilsang, birovni she'r bil" kabi maqollardan serqirra ma'nolar oydinlashadi. "Bor maqtansa topilur, yo'q maqtansa chopilur" maqoli orqali Umarxon zamoniga simpatiyasini "Ming chordevor qizimning qalini. Holo, podshohimiz Umarxon zamonlarida bir bosh chordevor topilmas, uyalurmiz", "Uyat -o'limdin qattig'", "Ermon yog'ochning egilgani - singani, Er yigitning uyalgani o'lgani" kabi maqollarda ifoda qilingan. Anda Yapaloqqush: "Men sizni bilimlik va ma'nidin boxabar kishi fahmlab erdim. Ko'r tutganini, kar eshitganini qo'ymas" maqoli jamiyatning ayrim kishilarida ilmda oqsash bo'lishi ko'rsatib berilgan.

"Kulonkir Sulton dargohiga boruvchi Ko'rqush Qolg'on oshni suzganda, karamlik bo'lmay, baxillik qilganini, o't-u olov ziyoda edi:

Az karam nest baxili kardan,

Xon nihodin taomi xo'rdan beh.

Izohi: baxillik qildi, qolgan taom xo'rlikda yashagandan afzal.

Tahmatan oluvchi bahodiri jarror, muft topilganda oshar, ichi po'k Umar ayyor, Muhammad Sodiq zargar, Jalil bo'qoq oshpaz, haromzodaday takror SHo'ranul, so'zi yuzsiz Sayd Azimjon, Xolboqi misgar, Mulla Siddiq kotib, Ashur yiriq qassob (laqab), Niyozcha otaliq, Mulla Asqar, Muhammadxo'ja Hoji, Otaboy amin, Abdurahim sudxo'r obrazlar satirik unsurlarga hissa qo'shgan:

O'zin goh mullo olur, goh taqi
Niyozcha og'aliq, xush ahmaqi.
Bobojon Ashur cho'loq-u, Ali biri,
Ho'qand mulkida ahmaqi nodiri.
Etib kibr-u manmanlik sharobini no'sh,
Qalamdoni sanduqchayi dukfurush, - deya o'z davridagi ayrim ilmsiz, johil
kishilarni tanqid qiladi.

“Zarbulmasal”dagi ayrim hikoyatlarning sujetidadan kelib chiqadigan xulosalar xuddi qissadan hissa kabi bir maqol mazmuniga singdirib yuborilgan. "Bahuda chiranish belni chiqaradi", "Avval bil, keyin qil" singari maqollar "Maymun bilan Najjor" hikoyatiga mos tushsa, "Tuya bilan Bo'taloq" hikoyatiga "Sigir suv ichguncha, buzoq muz yalar", "Toshbaqa bilan chayon" hikoyatiga "Ilon po'stini tashlagani bilan qilg'ini tashlamas", "Ibrohim bog'bon haqida..."gi hikoyatga "SHayx ishini bilmasa, murid kulfat tortar" kabi maqollar mazmuniy ziynat bo'lib xizmat qilgan.

Gulxaniyning ayrim so'zlari orqali saroydagi xizmatchilar, shoirlar bilan bo'lgan davralar, navkarlikdagi o'zi guvohi bo'lgan xon saroyining amaldorlarining munosabatlari, aholining turmushi sezilarli aks etgan. Bu holatlar ushbular orqali ma'lum bo'ladi. "Illo ulugning dargohida donish va ahli xiradmandi bohush har qancha ko'b bo'lsa ham oz blur".

Xulosa qilib aytganda, “Zarbulmasal” so'zga ishqiboz qiladigan ohangrabo, qimmatli o'gitlar jamlangan didaktik yodgorlikdir. “Zarbulmasal” nsonlarni yaxshilikka undovchi, chuqur hayotiy tajribalarga ega bo'lish, insonning bir-biriga hurmat va ehtiromda bo'lishi, mehmondo'stlik, karam, adolat kabi sifatlarni insonda shakllanishi muhimligini ko'rsatish bilan bir qatorda, undagi maqollar orqali kishilarning hayotiy tajribalarni oshirishga undovchi chinakam san'at asari sifatida e'tiborga molik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergasheva M.R. "Modern Science and Research", 4(6), 49-53.
2. Wolfgang Mieder "Proverbs: A Handbook" (2004).
3. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizaev SH., 5-sinf darslik, 52-bet, 2007, 2015.
4. Yusuf Xos Hojibning „Qutadg‘u bilig“ asari, Toshkent, 1991.
5. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizaev SH., 5-sinf darslik, 40-bet, 2007-2015.
6. Ahmedov S., Qosimov B., Qo'chqorov R., Rizaev SH., 5-sinf darslik, 40-bet, "SHarq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2007, 2015, 2020.